

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

| | | |
|---|------------------------|---|
| <i>Lutfillova Xamida</i> | <i>Murodillova</i> | Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич |
| “ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ | | |
| ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА | | 12-17 |
| <i>Ezhambergenov Xaitboy</i> | <i>Xamidulla</i> | Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли |
| ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ | | |
| ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) | | 18-25 |
| <i>Esonov Ziyodbek</i> | <i>Yuldashevich</i> | Esonov Ziyodbek Yuldashevich |
| QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI | | 26-31 |
| <i>Mamatqulov Bekzod</i> | | Mamatqulov Bekzod |
| O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI | | |
| VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI | | 32-38 |
| <i>Asadova Ra'no</i> | <i>Baymanovna</i> | Asadova Ra'no Baymanovna |
| O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK | | |
| ISTIQBOLLARI | | 39-42 |
| <i>Saidova Raxima</i> | | Saidova Raxima |
| O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI | | 43-48 |
| <i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i> | <i>Ergasheva Ra'no</i> | Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi |
| AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI | | 49-55 |
| <i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i> | | Iriskulov Bekzod Jaxongirovich |
| TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM | | |
| MULOHAZALAR | | 56-60 |
| <i>Mirsoatova Sayyora</i> | <i>Turg'unovna</i> | Mirsoatova Sayyora Turg'unovna |
| QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI | | 61-66 |
| <i>Luhmonov Shaxzod</i> | <i>Sayfiiddin</i> | Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли |
| ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- | | |
| ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР | | 67-71 |
| <i>Axmedov Bekzod</i> | | Axmedov Bekzod |
| SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH | | |
| TADBIRLARI | | 72-75 |
| <i>Mamatov Jasurbek</i> | <i>Qodirqul o'g'li</i> | Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li |
| NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI | | |
| (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) | | 76-80 |
| <i>Saidaxmatov Sharifbek</i> | <i>Toshpo'latovich</i> | Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich |
| SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY | | |
| YO'NALISHLARI | | 81-88 |

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

| | |
|--|---------|
| <i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i> | |
| ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ | 203-209 |
| <i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i> | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA)..... | 210-216 |
| <i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i> | |
| IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN..... | 217-221 |
| <i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i> | |
| CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI | 222-227 |
| <i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i> | |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI | 228-233 |
| <i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i> | |
| TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI | 234-243 |
| 09.00.00 – FALSAFA FANLARI | |
| <i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> | |
| SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI | 244-248 |
| <i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i> | |
| XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI | 249-254 |
| <i>Saburov Jaloliddin</i> | |
| XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI | 255-260 |
| <i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i> | |
| NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 261-265 |
| <i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i> | |
| FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY | 266-271 |
| <i>Adilov Zafar Yunusovich</i> | |
| MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI | 272-277 |
| <i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i> | |
| ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION | 278-282 |
| <i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i> | |
| TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI | 283-287 |

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

| | |
|---|---------|
| <i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i> | |
| SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI | 382-385 |

| | |
|--|---------|
| <i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i> | |
| INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI | 386-390 |

| | |
|---|---------|
| <i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i> | |
| ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI | 391-396 |

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

| | |
|--|---------|
| <i>Рузметов Хайрулла</i> | |
| ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ | 397-402 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ачилова Лилия Илхомовна</i> | |
| ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА | 403-410 |

| | |
|---|---------|
| <i>Abdubannayev Umidjon</i> | |
| AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI | 411-421 |

| | |
|--|---------|
| <i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i> | |
| ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ | 422-427 |

| | |
|---|---------|
| <i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i> | |
| ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР | 428-433 |

| | |
|---|---------|
| <i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i> | |
| ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ | 434-439 |

| | |
|--|---------|
| <i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i> | |
| IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA | 440-446 |

| | |
|--|---------|
| <i>Алиев Асилбек Кадирович</i> | |
| КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ | 447-451 |

| | |
|--|---------|
| <i>Нодирахон Абдурахманова</i> | |
| РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ | 452-462 |

| | |
|--|---------|
| <i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i> | |
| РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ | 463-469 |

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

| | |
|---|---------|
| <i>Xusanova Mohira</i> | |
| OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH | 470-479 |

| | |
|--|---------|
| <i>Берикбаев Алишер Аликулович</i> | |
| ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ | 480-483 |
| <i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> | |
| TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI | 484-489 |
| <i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i> | |
| CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH | 490-494 |
| <i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i> | |
| TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI | 495-500 |
| <i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i> | |
| MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI | 501-505 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i> | |
| O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV | 506-518 |
| <i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i> | |
| TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI | 519-524 |
| <i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i> | |
| SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI | 525-529 |
| <i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i> | |
| MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI | 530-534 |
| <i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i> | |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI | 535-539 |
| <i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> | |
| TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI | 540-545 |
| <i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> | |
| THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY | 546-550 |
| <i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i> | |
| THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS | 551-555 |
| <i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i> | |
| TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA | 556-564 |
| <i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i> | |
| ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI | 565-568 |

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

FEATURES OF MANAGING INNOVATION ACTIVITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Bahodirov Shohruh

Doctoral Student at Tashkent State Transport University

Email: shohruh94@gmail.com

Abstract. This article examines the important aspects and features of managing innovation activities in industrial enterprises. It highlights the significance of managing innovation activities, the implementation of new technologies and developments for enterprises, improving product quality, and ensuring competitiveness. The article covers various methods, strategies, and practical aspects of organizing and managing innovation processes.

Keywords: new ideas, new technologies, management of innovation activity in industrial enterprises, innovation strategy, innovation culture for industrial enterprises, innovation environment

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti doktaranti

Abstract. This article examines the important aspects and features of managing innovation activities in industrial enterprises. It highlights the significance of managing innovation activities, the implementation of new technologies and developments for enterprises, improving product quality, and ensuring competitiveness. The article covers various methods, strategies, and practical aspects of organizing and managing innovation processes.

Keywords: new ideas, new technologies, management of innovation activity in industrial enterprises, innovation strategy, innovation culture for industrial enterprises, innovation environment

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N25>

Kirish. Hozirgi zamon iqtisodiyoti, global raqobat va tez o'zgaruvchan bozor sharoitlari sharoitida, sanoat korxonalarini uchun innovatsion faoliyatni samarali boshqarish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda

Shuningdek, innovatsion faoliyat, tashkilotning rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, korxonaning bozor talablariga moslashishi, yangi imkoniyatlar yaratishi va iqtisodiy o'sishga erishishi uchun zarurdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyulidagi PF165 sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" [1] gi Farmoni bilan mamlakatimiz innovatsion rivojlanish strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo'jaligi, energetika, qurilish, ta'lif, sog'liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanish

bo'yicha davlat siyosatining maqsadli yo'nalishlarini belgilab berib uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog'ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish;
- kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jadal o'sishini ta'minlash;
- yangi turdag'i mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar yaratishning kompleks tizimini shakllantirish va bu orqali innovatsiyalar talabini rag'batlantirish;
- innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirish. Shuningdek, mazkur strategiya doirasida innovatsion faoliyat subyektlari ya'ni sanoat ishlab chiqarish tashkilotlari sonini 613 tadan 2250 tagacha yetkazish, innovatsion infratuzilma subyektlari sonini 3 baravarga oshirish, innovatsion tadbirkorlik natijasida yaratiladigan yangi ish o'rnlari sonini 4 baravarga oshirish maqsad qilingan.

O'zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari, jumladan, sanoat tarmog'ini jadal rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. 2024- yilning yanvar-iyul oylarda Toshkent viloyatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 12,3 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,5 %ni tashkil etdi.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Innovatsiyalar asosida sanoat karxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning hususiyatlari, uning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar Genri Uilyam Chesbrough [3; 35-41 b.] fikriga ko'ra, innovatsiyalar firmalarning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishlari, raqobatbardoshligini saqlab qolishlari va uzoq muddatli o'sishga erishishlari uchun zarurdir.

Bundan tashqari, Y.Shumpeter [6; 48-65 b.] innovatsiya iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'radi. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (Theory of Economic Development) nomli asarida innovatsion jarayon natijasidagi o'zgarishlarni quyidagi besh yo'nalishga ajratib ko'rsatib bergan.

P.F.Drukerning [2: 1-6 b.] fikricha tashkilot ichida innovatsiyalarni boshqarish va ijodiy muhitni yaratish zarurligini ko'rsatadi u innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarish uchun aniq maqsadlar va rejalashtirishni tavsiya etadi.

Innovatsion omillarning ayrim nazariy jihatlarini O'zbekistonlik olimlardan, N.Yoldoshev va Sh.Mirsaidova [4] o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish va uni boshqarish masalalarini o'rganganlar. Ular innovatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun korxonalarda innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Sh.Zaynutdinov va G.Shanazarova [5] o'z ilmiy ishlarida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo'llarini tahlil qilganlar. Ular innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun korxonalarda innovatsion madaniyatni rivojlantirish va xodimlarning kreativligini oshirish muhimligini qayd etadilar.

Bundan tashqari, D.Mamatjanov va N.Xidirov o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganib, innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun korxonalarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalalariga e'tibor qaratadilar.

Ushbu olimlarning ilmiy asarları sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga xizmat qiladi va korxonalar uchun innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim manba hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida uning samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiqot ob'ekti sifatida atroficha o'rganilmagan. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida Sanoat karxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy tadqiqotlar va tajribalar asosida innovatsion faoliyatni boshqarishning samarali usullari, strategiyalar va yondashuvlar tahlil qilingan. Ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda, innovatsiyalar nafaqat yangi g'oyalar yoki mahsulotlar ishlab chiqishni, balki o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning kreativligini oshirishni ham o'z ichiga oladi.

Korxonalar o'z innovatsion jarayonlarini boshqarishda, resurslarni to'g'ri taqsimlash, hamkorlik aloqalarini o'rnatish va innovatsion madaniyatni rivojlantirish kabi bir qator muhim xususiyatlarni hisobga olishlari zarur.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning birinchi qadamlaridan biri aniq innovatsion strategiyaning mavjudligidir. Innovatsion strategiya korxonaning uzun muddatli maqsadlarini belgilab, bozor talablariga moslashishda yordam beradi. Mahsulot va jarayonlar bo'yicha yangi g'oyalarni ishlab chiqish, bozor tahlili va raqobatchilarni o'rganish orqali korxonalar innovatsion strategiyalarini shakllantiradi.

Bu jarayonlar orqali sanoat korxonalarida raqobatbardoshligini oshirib, bozor ulushini kengaytirishi mumkin shu bilan birgalikda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun maxsus jamoalar tashkil etish zarur.

Bu jamoalar yangi g'oyalarni ishlab chiqish, loyiha rejalashtirish va innovatsion faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Loyiha boshqaruvi jarayonida o'zaro hamkorlik va muloqot o'rnatish, jarayonlarni soddalashtirish va natijalarni baholash jarayonlarini amalga oshiradi.

Tadqiqot va rivojlanish bo'limlari bo'lsa innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu bo'limlar yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish, tadqiqotlar olib borish va yangi texnologiyalarni joriy etish bilan shug'ullanadi innovatsion jamoalarning faoliyati korxonaning umumiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonalari uchun innovatsion madaniyatni rivojlantirish innovatsion faoliyatni samarali boshqarish jarayonini tashkil etishga imkon yaratadi. Innovatsion madaniyat tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi, yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berishga imkon yaratadi.

Innovatsion madaniyat zamонави ташкілотларнинг муввағақиятида мумин рол о'ynaydi. Бу, yangi g'oyalar va ijodiy yechimlarga ochiqlikni, xodimlar o'rtasida samarali muloqotni va o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan muhitdir.

Innovatsion madaniyat nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish, balki korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ham zarurdir.

Bugungi tezkor o'zgaruvchan biznes muhitida, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish hamda bozor talablariga moslashish imkoniyatini oshirish uchun innovatsiyalarni amalga oshirish juda muhimdir.

Innovatsion muhit xodimlar uchun ham motivatsiya manbai bo'lib, ularning fikrlarini qadrlash orqali ijodiy potentsialini oshiradi.

Innovatsion madaniyatni rivojlantirish orqali korxonalar o'z raqobatbardoshliklarini oshirishi va yangi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. shu bilan birga innovatsiyalarni baholash va tahlil qilish jarayoni, ularning samaradorligini, amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni va kelajakdagi imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bu jarayon innovatsion strategiyaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun juda muhimdir. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish, korxonaning rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar nafaqat yangi mahsulotlar va jarayonlarni yaratish, balki mavjud resurslarni yanada samarali foydalanish, bozor talablariga tezkor moslashish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari tahliliga ko'ra, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonaning ko'lami ortib borgani sari, uning innovatsion faolligi ham mos ravishda ortadi.

O'zbekistondagi kichik, o'rta va yirik korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

1-jadval

2020-2022 yillarda O'zbekistonda korxonalarning ko'lami bo'yicha

innovatsiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari (foizda)

| | Mahsulot bo'yicha innovatsiya | Boshqaruv bo'yicha innovatsiya | Ilmiy tadqiqot ishlari | Tashqi bilim | Ichki imkoniyat | Tashqi imkoniy at |
|----------------|--|---|---------------------------------------|-------------------------|----------------------------|----------------------------------|
| Kichik korxona | 28 | 14 | 4 | 7 | 10 | 4 |
| O'rta korxona | 30 | 19 | 9 | 11 | 14 | 8 |
| Yirik korxona | 32 | 22 | 15 | 13 | 22 | 13 |

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurituvchi kichik korxonalarning 28 foizi mahsulotga doir innovatsiyalarni joriy qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'rta korxonalarda 30 foizni va yirik korxonalarda 32 foizni tashkil etadi.

Boshqaruvga oid innovatsiyalar esa kichik korxonalarda 14 foizni, o'rta korxonalarda 19 foizni va yirik korxonalarda 22 foizni tashkil etdi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari kichik korxonalarda 4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'rta va yirik korxonalarda bu ko'rsatkich mos ravishda 9 foiz va 15 foizga yetdi. Bu esa yirik korxonalarda innovatsion jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi Andijon viloyatida 15 ta, Buxoro viloyatida 10 ta, Farg‘ona viloyatida 12 ta, Jizzax viloyatida 8 ta, Qashqadaryo viloyatida 9 ta, Navoiy viloyatida 7 ta, Namangan viloyatida 11 ta, Samarqand viloyatida 14 ta, Surxondaryo viloyatida 6 ta, Sirdaryo viloyatida 5 ta, Toshkent viloyatida 20 ta, Toshkent shahrida 25 ta, Xorazm viloyatida 7 ta va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 4 tani tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarishning dolzarbligini va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonning turli viloyatlarida kichik korxonalar va mikrofirmalarning innovatsion faoliyatiga oid faolligida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Toshkent shahri (25 ta) va Toshkent viloyati (20 ta) innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi pozitsiyada. Bu holat poytaxt va uning atrofidagi hududlarda iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada rivojlanganligi, resurslar va infratuzilmaning yaxshi rivojlanishi bilan bog‘liq.

Viloyatlар bo‘yicha taqsimlanish: Andijon (15 ta), Samarqand (14 ta) va Namangan (11 ta) viloyatlari innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etmoqda. Bu hududlar qishloq xo‘jaligi va sanoat sektori o‘rtasida kuchli integratsiyaga ega bo‘lib, bu yerda innovatsion ishlanmalar va tadbirkorlik faoliyati yuqori.

Past ko‘rsatkichli viloyatlari: Qoraqalpog‘iston Respublikasi (4 ta), Surxondaryo (6 ta), va Sirdaryo (5 ta) viloyatlari innovatsion mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlarga ega. Bu past darajali faoliyat viloyatlarning infratuzilmasi, texnologik bazasi va moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Shuningdek, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi ham bunda rol o‘ynaydi.

Hududlararo farqlar O‘zbekistonda innovatsion faoliyatning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun regionlar bo‘yicha maqsadli yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi. Innovatsion infratuzilmani yaxshilash, tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va maxsus texnologik parklarni tashkil etish past ko‘rsatkichli hududlarda bu sohani rivojlanirishga yordam beradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz asosida mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion boshqarivi amaliyotini rivojlanirish, jumladan, ularning innovatsion faolligini oshirishga ustuvorlik qaratilishi zaruriyati mavjudligi anglatadi.

Hozirgi vaqtida respublikamiz iqtisodiyoti uchun muvofiq keladigan innovatsion kon'yunktura sanoat korxonalari uchun tashqi omil sifatida innovatsiyalar jozibadorligini ifodalaydi.

Innovatsion konyunkturani shakllanish holatini baholash bir qator parametrlar yoki ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Ushbu parametrlar muayyan mamlakatning innovatsiyalarni yaratish va joriy etish salohiyati hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq riskini ifodalovchi ko‘rsatkichlardir.

Ularning eng muhimlari sifatida: makroiqtisodiy barqarorliq innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasi, innovatsiya faoliyati huquqiy asoslari; soliq tizimining sifati va soliqqa tortish darajasi; bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi; innovatsiyalarga bo‘lgan talab va taklif nisbati, mamlakatda xususiy kapitalning rivojlanish darajasi; fan, ta’lim va sanoat o‘rtasidagi integratsiya rivojlanish darajasi,

hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; davlat boshqaruv tizimi kabilarni keltirish mumkin.

Xulosa. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish zamonaviy raqobatbardosh muhitda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot asosida aniqlanganki, korxonalar o'z strategik maqsadlariga erishish va bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishlari uchun innovatsion boshqaruvni mustahkamlashlari lozim. Innovatsion strategiyaning mavjudligi va uni doimiy yangilab turish korxonalar uchun uzoq muddatli muvaffaqiyat garovidir. Innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, korxonalarning ichki resurslarini optimal taqsimlash va tashqi imkoniyatlardan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsion boshqaruvga qaratilgan sa'y-harakatlar uzoq muddatda korxonalar uchun yangi bozorlar ochilishi, raqobatbardoshlik darajasining oshishi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashi kutilmoqda. Ushbu tadqiqot asosida korxonalar kelajakda strategik rejalashtirishni yanada yaxshilab, o'z resurslarini optimallashtirish orqali barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyatni samarali boshqarish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi. Korxonalar innovatsion strategiyalarini doimiy ravishda rivojlantirishi va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llashi zarur. Shuningdek, davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash va korxonalarning ichki salohiyati uyg'unlashgan holda, innovatsiyalar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishish mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Drucker P.F. Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, NJ; London. – 2007. 6
3. Chesbrough, H. (2003). The era of open innovation. MIT Sloan Management Review, 44(3), 35-41.
4. Yo'ldoshev, N., Mirsaidova, Sh. "Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirish va boshqarish masalalari" Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar, 2024-yil
5. Zaynudinov Sh. va Shanazarova G.ning "Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo'llari" nomli "Ilmiy tadqiqotlar jurnali" 2023-yil.
6. Шумпетер Й. Теория экономического развития. -М.: Прогресс 1982. 388 стр.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).